

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT
SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

“Tasdiqlayman”
O‘zbekiston davlat
san‘at va madaniyat
instituti rektori


N.B. Sayfullayev

“26” 06 2026-y

“Kelishildi”

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi


“26” 06 2026-y

“Kelishildi”

O‘zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi


“26” 06 2026-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**60211200-Rejissyorlik (qo‘g‘irchoq teatr rejissyorligi)
ta‘lim yo‘nalishi uchun**

1. Rejissyorlik mahorati fanidan
2. Aktyorlik mahorati fanidan

Toshkent – 2026

Dastur O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Badiiy, o'quv - uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2026-yil 15 05 10 - sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

- L.Usmanova – O'zDSMI "Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedrası mudiri, katta o'qituvchi
- M.Ashurova – O'zDSMI "Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedrası professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi

Taqrizchilar:

- Sh.Yusupov – O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri bosh rejissyori, kadrlar buyurtmachisi
- F.Xodjayev – O'zDSMI "Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedrası dotsenti

Kirish

60211200-Rejissyorlik (qo'g'irchoq teatr rejissyorligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishiga o'qishga kiruvchi abituriyentlarning kirish kasbiy (ijodiy) imtihonlari "O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlariga qabul qilish qoidalariga"ga muvofiq o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha kirish imtihonlar, har bir ixtisos uchun ta'kidlangan qabul talablariga muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha imtihon o'tkazilishining ketma-ketligi, har bir oliy o'quv yurtining qabul komissiyasi tomonidan o'rnatiladi va har yili qabul qilish qoidalar ko'rsatiladi.

60211200-Rejissyorlik (qo'g'irchoq teatr rejissyorligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishiga o'qishga kirayotgan abituriyentlar rejissyorlik san'atining asosi hisoblangan ssenariyavislik mahorati, rejissura nazariyasi, aktyorlik mahorati, sahna nutqi fanlaridan ijodkorlik, tashkilotchilik, san'at va madaniyat yo'nalishida fikrlay olish qobiliyatiga, asar tanlashda zaruriy jihatlarni bilish, tushunish, his qilish iqtidoriga hamda ijro mahoratiga ega bo'lishi kerak.

Fanlarning maqsadi va vazifalari

60211200-Rejissyorlik (qo'g'irchoq teatr rejissyorligi) ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlar, badiiy fikrlay olishi, asarni tasviriy va ovozi yechimi hamda aktyorlar ijrosidagi obrazli hissiy holat; qo'g'irchoqni his qilish, ovoz va ijro mutanosibligi va uning ijro mukammalligini seza bilishi, qo'g'irchoq teatrining o'ziga xosligi, undagi ramziy timsollar, spektakl yechimini belgilashda maydon, makon va zamon birligini his eta olishi shart.

Rejissyor, murabbiylik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi bilan birga aktyorlik mahorati, siyosiy va ijtimoiy taraqqiyot qonunlaridan habardor bo'lmog'i lozim.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy fanlaridan amaliy-ijodiy ishlardan qo'g'irchoq teatri aktyorligiga oid ijodiy ishlarni bajaradilar:

Rejissyorlik mahorati fani bo'yicha

60211200-Rejissyorlik (qo'g'irchoq teatr rejissyorligi) ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyent, rejissura mahorati fanidan kirish imtihonida rejissura nazariyasi va pyesa tahlilidan imtihon topshirishi lozim.

Aktyorlik mahorati fani bo'yicha

Aktyorlik mahorati fani bo'yicha kirish imtihonida abituriyent ijodiy ko'rikda qatnashishi lozim.

Abituriyent bu bosqichda quyidagi dasturlarni tayyorlashi lozim:

- 1) masal
- 2) monolog
- 3) she'r
- 4) qo'shiq
- 5) raqs
- 6) hayvonot olami (hayvonot xulq atvori) - kuzatishlar asosida etyud

7) yakka etyud – (abituriyentning yakka o‘zi bilan sahnada sodir bo‘layotgan so‘zsiz voqea ko‘rinish).

Bundan tashqari abituriyent qiziqqan sohasi yoki janri bo‘yicha o‘zi mustaqil tayyorlab kelgan nomerini ham namoyish etishi mumkin. Masalan:

- 1) plastika
- 2) pantomima
- 3) buyumlar jonlanishi - etyud
- 4) parodiya (taqlid san’ati)
- 5) musiqa san’ati

Bundan tashqari imtihon oluvchi tomonidan, tempo-ritm, diqqat, reaksiya, xotira va h.k.larni tekshirish uchun mashqlar beriladi.

Imtihondan o‘tayotganda berilgan shart - sharoit bo‘yicha etyud bajarish topshirig‘i ham beriladi, bu uni badiha qilish borasidagi qobiliyatini, hissiyotli ma’nodorlik darajasini tekshirishga imkoniyat beradi. Ijro etiladigan asarlar bir-biridan janr va mazmuni bo‘yicha ajralib turishi kerak, bu abituriyentning qobiliyatini va ijodiy diapazonining kengligini yuzaga chiqishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

Rejissyorlik mahorati fanidan bu jarayonida abituriyentning bo‘lajak kasbi xususida, qo‘g‘irchoq teatri rejissyorligining o‘ziga xos tomonlari, mazkur sohaga bo‘lgan abituriyentning individual qobiliyati aniqlanadi. Davlatimizning ichki va tashqi siyosati borasidagi bilimlarini to‘g‘ri baholashga, madaniyat va san’at sohasidagi izchil ijobiy o‘zgarishlarga, badiiy va sohaga oid adabiyotlar haqidagi tushunchasiga, mutolaa madaniyati, san’at turlari bo‘yicha asosiy savollarga to‘g‘ri oriyentatsiya qila olishini aniqlashga asosan e’tibor qaratiladi. Shuningdek, o‘zi yoqtirgan rejissyorlarning ijodiy faoliyati, ularning ijod namunalari, sahnalashtirishda o‘ziga xos jixatlari yuzasidan so‘raladi.

Pyesa tahlili - bunda ta’lim yo‘nalishiga davogar abituriyent, ixtiyoriy tanlov asosida qo‘g‘irchoq teatri uchun yozilgan pyesani olib, mustaqil tahlil etib keladi hamda qabul hay’ati oldida tahliliy jihatdan himoya qiladi.

Aktyorlik mahorati fanidan imtihonda ijro qilinayotgan asarni (nasr, masal, she’r, sonet, yana imtihon oluvchining tanlovi orqali publitsistik asar, hikoya) tubdan tushinish, eshitayotganlarni qiziqtirish, o‘ziga jalb qilish, tasavvur qila olishi, kuzatuvchanligi, ta’sirchanlik va ehtirosi, obrazli fikr yuritish qobiliyati tekshiriladi. Qo‘shiq, murakkab bo‘lmagan raqs harakatlari bilan birga qo‘shilib ijro qilinishi mumkin. Sahnaviy nutq, kuylash, sahnaviy harakat, raqs va boshqalar jonli tarzda bajariladi. Berilgan shart - sharoit bo‘yicha etyud bajarish topshirig‘ida abituriyentning badiha qilish qobilayatiga e’tibor qaratiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

Rejissyorlik mahorati fani bo‘yicha

№	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Rejissyorlik kasbi yuzasidan tushunchasi, sohadagi buyuk shaxslar, Respublika va xorijda sahnalashtirilgan spektakllar to'g'risida komissiya tomonidan berilgan mutaxassislik savollariga atroflicha, to'liq javob berishi kerak	20
2.	Ta'lim, adabiyot, san'at va madaniyat sohalarida bo'layotgan Respublikadagi va xorijdagi islohotlardan xabardorlik, mutolaa madaniyati	10
3.	San'at turlari va atoqli ijodkorlar haqidagi bilim va tasavvuri	10
4.	Qo'g'irchoq teatri san'ati to'g'risidagi tushunchasi (tarixi, turlari hamda asoschilari) xaqida ma'lumotga egaligi	13
5.	Imtihon komissiyasi tomonidan yuklatilgan vazifalarga nisbatan mantiqiy va ijodiy fiklash qobiliyati, madaniyati (odob-axloqi, muomala va estetik didi, dunyoqarashi)	10
1.	Tanlangan pyesaning sohaga daxldorligi	10
2.	Pyesa tahlil qoidalariga mosligi	10
3.	Pyesa tahlilini hay'atga tushuntirib berish mahorati, g'oya va mavzuni to'g'ri yoritilishi.	10
Jami:		93

Aktyorlik mahorati fani bo'yicha

№	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Ijro uslubi va mahorati (she'r, monolog, masal, etyud-hayotdan lavha) ijrosi. Tanlangan manba bolalar adabiyoti asosida bo'lishi shart.	20
2.	Idrok (mantiqiy mulohaza) Improvizatsiyaga moyilligi. Fantaziya, obrazli fikrlash (tasavvur)	5
3.	Hatti-harakatidagi tabiiyligi. Tana holati, plastik imkoniyatlari.	5
4.	Erkin mavzuda raqs; musiqani his qilishi (tempo-ritm), eslab qolish qobiliyati	5
5.	Qo'g'irchoqni boshqarishda harakat va ovoz uyg'unligini his etish	10
6.	Talaffuzda nutq a'zolaridagi organik va noorganik kamchiliklarning yo'qligi, ovozning sog'lomligi va jarangdorligi	5
7.	Badiiy so'z ijrochiligi mahorati (she'r, masal, monolog va nasriy – hajviy asarlar ijrosida tabiiylik va ta'sirchanlik darajalari)	5

8.	Badiiy va she'riy asarlardagi tasavvurning mavjudligi va mantiqiy, intonatsion ohangdorligi	8
Jami:		63

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

60211200-Rejissyorlik (qo'g'irchoq teatr rejissyorligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunlarda, belgilangan vaqt davomida ijodiy imtihonni topshiradi. Qabul hay'ati tomonidan shakllantirilgan guruhlardan iborat bo'lib, ijodiy imtihon guruhlari bo'yicha belgilangan kun va vaqtda o'tkaziladi. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar maxsus qurollar bilan jihozlangan auditoriyalarda bo'lib o'tadi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon raisi, rejissyorlik va aktyorlik mahorati, sahna nutqi, vokal hamda raqs mutaxassislarining tekshiruvi asosida o'tkaziladi. Ijro etiladigan asarlar bir-biridan janr va mazmuni bo'yicha ajralib turishi kerak, bu abituriyentning qobiliyatini va ijodiy imkoniyati aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash ha'yatiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

1. Madaniyat va san'at atamalarining izohli lug'ati. B.S.Sayfullayev tahriri ostida. – Toshkent: "G'ofur G'ulom" nashriyoti, 2015.
2. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: "Bilim" nashriyoti, 2005.
3. Qodirov M.X. Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1991.
4. Ashurova M.H. Aktyorlik mahorati. Darslik. – Toshkent: "Innovatsion-Ziyo" nashriyoti, 2021.
5. Ashurova M.H., Abduxalilov A.A. Aktyorlik mahorati. 2-kurs Qo'g'irchoq teatri aktyorligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Fan va ta'lim" poligraf MCHJ nashriyoti, 2021.
6. Ashurova M.H. Mehrdan yaralgan olam. Professional qo'g'irchoq teatrlari uchun pyesalar to'plami. – Toshkent: "Zamon" poligraf OK nashriyoti, 2021.
7. Abduxalilov A.A. Qo'g'irchoq teatri rejissyorligi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: "Innovatsion-Ziyo" nashriyoti,, 2020.
8. Юсупова В.И. Кукловодство. Работа с перчаточной куклой. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Innovatsion-Ziyo" nashriyoti, 2020.
9. Qurbonov A. Qo'g'irchoq teatri rejissyorligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Innovatsion-Ziyo" nashriyoti, 2020.
10. Sundukova V.N., Ahmedova Z.A. K.S.Stanislavskiy sistemasi atama va unsurlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: nashriyoti yo'q, 2012.

11. K.S.Stanislavskiy Aktyor o'z ustida ishlashi. O'quv qo'llanma. T.Xo'jayev tarjimasi, – Toshkent: nashriyoti yo'q, 2010
12. Abdullaev D.D., Usmanova L.Dj. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari. Qo'g'irchoq teatrida simli qo'g'irchoq. O'quv qo'llanma. – Toshkent: “Innovatsion-Ziyo” nashriyoti, 2020.
13. Abduxalilov A.A., Mamatqulov B.M. Qo'g'irchoq yasash texnologiyasi. O'quv qo'llanma. – Qo'qon: “ART Press” nashriyoti, 2022.
14. Mamatqulov B.M. Qo'g'irchoq mexanikasi va konstruksiyasi. O'quv qo'llanma. – Qo'qon: “ART Press” nashriyoti, 2022.